

## ABDULLA QODIRIY HAYOTI VA IJODIGA AYRIM CHIZGILAR

**Marjona Ziyodullayeva**

TerDU talabasi

**Muxtorova Mahfuza**

Ilmiy rahbar, o'zbek adabiyotshunosligi kafedrası o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11396970>

**Annotatsiya.** Ushbu maqola adabiyotshunos olim, o'zbek milliy romanchiligining asoschisi bo'lmish Abdulla Qodiriyning asarlari tahlili hamda adabiyotshunos olimlarning tanqidiy tahlillari va bugungi kun tanqidchiligida tutgan o'rni kabi masalalari keng yoritilib, havola etilgan.

**Kalit so'zlar:** milliy romanchilik, Jo'rji Zaydon, "O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon", obraz, personaj, qahramon.

### SOME LINES ON THE LIFE AND WORK OF ABDULLA QADIRI

**Abstract.** This article analyzes the works of Abdulla Qadiri, a literary scholar, the founder of the Uzbek national novel, as well as the critical analyzes of literary scholars and their role in today's criticism.

**Key words:** national novelism, George Zaydon, "The Past Days", "Scorpion from the Altar", image, character, hero.

### НЕКОТОРЫЕ СТРОКИ ИЗ ЖИЗНИ И ТВОРЧЕСТВА АБДУЛЛЫ КАДИРИ

**Аннотация.** В статье анализируются произведения Абдуллы Кадыри, литературоведа, основоположника узбекского национального романа, а также критический анализ ученых-литературоведов и их роль в современной критике.

**Ключевые слова:** национальный романизм, Джордж Зейдон, «Прошлые дни», «Скорпион у алтаря», образ, персонаж, герой.

XX asr o'zbek adabiyotida o'zining yorqin asarlari bilan xalqimiz yuragidan o'chmas iz qoldirgan, zabardast ijodkorlaridan bo'lmish Abdulla Qodiriy o'zbek milliy romanchiligining tadrijini boshlab berdi. Ustozning ilk adabiyotga kirib kelishi 1913-yillarga borib taqaladi. Birinchi hajviyalari va hikoyalari jurnal, gazetalarda e'lon qilinadi. Qodiriyning O'tkan kunlaridek Mehrobdan chayon romanlaridek asarlari badiiy adabiyotimizda o'ziga xos o'rni bor. Ushbu asarlar qo'ldan qo'lga o'tib, bugun ham o'z kitobxonini yo'qotmagan. O'z davrida har ikkala romanlar ham tanqidlar ostida qolgan. Axir xalqimizda shunday gap borku: Tosh ham mevali daraxtga otiladi. Darhaqiqat, ustozning asarlari birinchi va yozilishi barcha uchun tushunarli

bo'lgani uchun ham uni hamma qattiq tanqid ostiga olib, hattoki avvaliga nashrdan chiqishiga ham qarshi bo'ladi. Qodiriyning "O'tgan kunlar" va "Mehrobdan chayon" romanlariga o'z davrining yosh munaqqidlardan Sotti Husayn va Azimzodalar salbiy fikrlar bildirib maqolalar yozadi. Azimzoda quydagicha fikr bildiradi asar haqida " Abdulla Qodiriy bo'lshaviklar uchun xizmat qilib turadir. Uning "Mehrobdan chayon" degan kitobi milliy ro'mon emasdir. Bu asarda burung'i xonlarning ayblari xayoliy va mubolag'ali bir suratda tasvir etilib, eski an'analar xalaflar nazarida taqbih etiladir; millat va milliyat tuyg'usi alayhinda bo'lg'on bu ro'mon bo'lshaviklar manfaati uchun nashr etilmishdir"<sup>1</sup> aslida esa yozuvchi asari orqali xalqni ilmi qilish, dunyoqarashini kengaytirish, ularning mudroq ko'zlarini chuqur uyqudan uyg'otish edi. Lekin unga tosh otguchilar ko'p bo'ldi. Sotti Husayn "Roman ham haqiqat" nomli maqolasida asarning nomi o'tgan kunlar lekin unda tarixiylik mavjud emas deyilgan.

Menimcha, bu fikrlar mutlaqo notug'ri chunki, Qodiriy bu asarni yozish uchun birinchi navbatda izlanishi tarixga nazar bo'ladi, bobosidan eshitgan tarixiy voqealardan , xonliklar davridan ancha muncha habari bo'lib kiyin "O'tkan kunlarni" yozishga qaror qiladi. Men asarning yozilish tarixi bilan tanishganimda ustoz Qodiriy asarga kiritilgan geografik nomlarni shunchaki qo'ymagan ekan, uning aytishicha asardagi hududlarga bir necha marotalab sayohat qilib , hududlar bilan yaxshilab tanishib kiyin kiritgan ekan. Bundan ham ko'rinib turibdiki yozuvchi asar ustida ko'p ishlaganligini bemalol bilishimiz mumkin. Sotti Husayn Qodiriyning bu asarini Misr yozuvchisi Jo'rji Zaydondan ko'chirilgan deydi. Bundan tashqari Sotti Husayn bir qancha salbiy fikrlar bildiradi ammo bu kabi tanqidiy qarashlar asarning mazmuniga, kitobxonlarning o'qishga bo'lgan muhabbatini so'ndirmadi. Abdulla Qodiriy Sotti Husaynga javob tariqasida "Sharq haqiqati" gazetasiga maqola yozadi unda quydagi fikrlarni bildiradi: "Tanqidchi meni "O'tkan kunlar" bilan o'g'ri qilmasa ham, lekin adabiyot o'g'rilari to'g'risida bahs qila kelib: "O'tkan kunlar" ning ancha yeri Jo'rji Zaydonning "Armanusa", "O'n yettinchi ramazon" ro'monlarig'a o'xshab ketsa ham, unda Abdulla Qodiriyning o'z so'zlari ham ko'bdur deydir. O'qug'uchilardan ba'zilari bu bilan shubhaga tushib, "O'tkan kunlar"dagi Jo'rji Zaydonning so'zlari qaysi va sizning so'zlaringiz qaysi? deb menga murojaat qildilar. Sotti Husaynning yuqori va quyidag'i yo'llaridan bunday ma'no anglashilmag'ani uchun ularg'a "Oqilon payravi nuqat nakunad" javobini berish bilan kifoyalandum va hanuz shu fikrdaman. Shunga o'xshash tanqidchi — yozuvda, tilda bir oz no'noqroq va beparvo harakat qilsa kerakkim, uning jumllaridan bir qismi izohga muhtoj ko'rinadilar"<sup>2</sup>. Darhaqiqat, ustozning bu javoblari juda o'rinli va kitobxon uchun qorong'u bo'lib

<sup>1</sup> Azimzoda "O'tkan kunlarimiz" Yosh Turkiston 1931-yil 18-son.

<sup>2</sup> Abdulla Qodiriy "Sharq haqiqati" gazetasi—1929 yil 218-son

turgan jihatlarni ochib beradi. Qodiriy ijodi va uning aynan "O'tkan kunlar" asari bo'yicha ko'plab tadqiqot ishlari olib borilgan. Bir qator adabiyotshunos olimlar o'zlarining iliq fikrlarini bayon etgan. Masalan, Izzat Sulton ham bir qator ilmiy izlanishlar olib borgan. Uning "Abdulla Qodiriy va uning "Mehrobdan chayon " romani " nomli maqolasi mavjud bo'lib, unda asarning mazmun mohiyati haqida o'z fikrlarini bildiradi.

Izzat Sultonning bitta fikri, Qodiriyga bergan ta'rifi meni o'ziga tortdi. Ustozda haraktershunoslikning roli judayam kuchli edi, boshqa ko'plab yozuvchilar hattoki ustozdan haraktershunoslikni o'rganib asar yozar edi deydi. Darhaqiqat, yozuvchi qanchalik ko'p qirrali harakterni yoritisa shunchalik kitobxonga maqul keladi. Buni kitobxon sifatida qarashim deb hisoblayman. Masalan, menga asardagi takrorlanmas obrazlarning ko'pligi yoqadi. Qancha obrazlar, qahramonlar, personajlar ko'p bo'lsa, asarning kulminatsion nuqtasi, konfliktlari juda chiroyli o'qishga arzigulik qilib yoritilgan. Yozuvchining biror asarni yozishi uning albatta harakteriga bog'liq deb o'ylayman. Negaki, inson o'z hissiyotlarini beixtiyor qog'ozga tushuradi, qog'ozga tushgach qarabsizki bu asar, ammo hamma ham hissiyotlarini qog'ozga tushirganda, barcha yozuvchi bo'lib ketar edi. Lekin badiiy adabiyot degan narsa bor, u qildan ham ingichka va nozik bo'ladi, chunki bir og'iz so'z sehri bilan asar ham inson aalbi ham ostun ustun bo'lib ketishi mumkin. Mana shu jihatdan ham yozuvchilar tabiati, boshqalarga qaraganda sal o'zgacharoq bo'ladi. Adabiyotshunos olim Umarali Normatovning bir fikri meni judayam qiziqtirib qo'ydi va ustozning hayotini chuqurroq o'rganishga undadi. "Qodiriy gullarni juda yaxshi ko'rar edi, Gullarni parvarish qilishni hech kimga ishonmas edi"<sup>3</sup> ustozning mana shu xususiyati uning aynan asari qahramoni Anvar obraziga aloqadorligi mavjud. Asarda Anvar ham gullarni yaxshi ko'rar, mahdumning uyida bir chetini o'zi uchun bog' qilib olgan edi. Uni o'zi parvarish qilar edi deyilgan. Bunday ya'ni yozuvchining ba'zi xulq-atvori asar qahramonlariga o'tgan ko'plab nasriy asarlar mavjud. Ustoz Qodiriy xalqlar do'stligimi o'zbek romanida ilk aks ettirgan yozuvchi hamdir. "Mehrobdan chayon" asaridagi Anvarning do'stlari buning yaqqol dalilidir. Har ikkala romanlar xususida, hattoki bugungi kunda ham ko'plab munozara va muzokaralar olib borilmoqda. Qodiriy shaxsiyati, asarlar borasida ko'plab tadqiqotlar olib borilib, qodirishunoslikka asos solindi. Bu ishlarning boshida ustoz Qodiriyning o'g'illari turadi, Habibullo Qodiriy va Mas'ud Qodiriylar turadi. Ularning avtobiografik asarlari nosirning boshidan kechirgan og'ir va azobli yillari haqida bayon etiladi.

Har gal qaysidur ijodkor hayotini o'rganib boshlaganimda, chuqur o'yga sho'ng'ib ketaman. Nima uchun? Nega? Savollarning girdobida qolib ketaman. Nima uchun qanchadan

<sup>3</sup> Umarali Normatov "Qodiriyning so'nggi iltijosi" –Toshkent -2014



qancha ijodkorlarning aksariyat hayoti og'ir qiyinchiliklar bilan o'tadi. Abdulla Qodiriyning ham hayoti iztirobli o'tadi. Bu haqida qodirishunos olimlar Habibullo Qodiriyning "Otam haqida", Mas'ud Qodiriyning "Otamning qabri qayerda", Umarali Normatovning "Qodiriyning so'nggi iltijosi", Ahmad Aliyevning "Istiqlol va adabiy meros" kitoblaridan ma'lumotlarni olishimiz mumkin. Ushbu kitoblarda ustoz hayotining achchiq kunlarini xotirlaydi.

Xulosa o'rnida shuni aytishim joizki, Qodiriyning asarlarini bugungi kunda salbiy tanqidiy tahlil qilayotganlar, uning romanlariga davr nuqtai nazaridan olib tahlil qilishi kerak. Tahlikali davrda bunday romanlar yozish, jamiyatni sara asarlari bilan uyg'otish, ularga erk, ozodlik g'oyalarini bera olish har qanday ijodkorlarning qo'lidan kelavermagan. Bunday asarlar Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat hamda Abdulla Avloniy kabi yozuvchilarning sermahsul ijod namunalari dagina o'z aksini topgan. Bugun tanqidchiligimizning eng dolzarb muommolaridan biri o'z fikrimizni to'la to'kis bayon eta olmasligimiz. Nazarimda, o'zbek adabiyotining noyob durdonalarini tanqid qilmasdan, tahlil qilishimiz kerak ammo jarayondagi asarlarning durdono bo'lishi uchun tanqidiy qarashlarimizni o'z o'rnida bayon qilishimiz kerak.

#### **REFERENCES**

1. Azimzoda "O'tkan kunlarimiz" Yosh Turkiston 1931-yil 18-son.
2. Abdulla Qodiriy "Sharq haqiqati" gazetasi–1929 yil 218-son
3. Umarali Normatov "Qodiriyning so'nggi iltijosi" –Toshkent -2014.